

## INTELLEKTUAL KAMCHILIGI BO‘LGAN O‘QUVCHILARNI AXLOQIY TARBIYALASH VA XULQ-ATVOR MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH USULLARI

Abidova Nazokat Qutbiddinovna

O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti Oligofrenopedagogika kafedrası  
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Chorshamova Iroda

O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti

Maxsus pedagogika (oligofrenopedagogika) yo‘nalishi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20085506>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada intellektual kamchiligi bo‘lgan o‘quvchilarni axloqiy tarbiyalash va ularda xulq-atvor madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari yoritilgan. Shuningdek, axloqiy sifatlarni rivojlantirishda qo‘llaniladigan zamonaviy metodlar, ijtimoiy vaziyatlarni modellashtirish, emotsional ta‘silantirish va jamoaviy faoliyatning ahamiyati tahlil qilingan. Maxsus ta‘lim jarayonida korreksion-rivojlantiruvchi ishlarining samaradorligi ham ochib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** intellektual kamchilik, axloqiy tarbiya, xulq-atvor madaniyati, ijtimoiy moslashuv, korreksion-rivojlantiruvchi ishlar, emotsional rivojlanish, maxsus pedagogika, tarbiya metodlari.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются педагогические основы нравственного воспитания учащихся с интеллектуальными нарушениями и формирования культуры поведения. Анализируются современные методы нравственного воспитания, значение моделирования социальных ситуаций, эмоционального воздействия и коллективной деятельности. Также раскрывается эффективность коррекционно-развивающей работы в системе специального образования.

**Ключевые слова:** интеллектуальные нарушения, нравственное воспитание, культура поведения, социальная адаптация, коррекционно-развивающая работа, эмоциональное развитие, специальная педагогика, методы воспитания.

Bugungi kunda maxsus pedagogikaning muhim vazifalaridan biri intellektual kamchiligi bo‘lgan o‘quvchilarni jamiyat hayotiga moslashtirish hamda ularda axloqiy sifatlarni shakllantirishdan iborat. Chunki axloqiy tarbiya shaxsning ijtimoiy hayotdagi xulq-atvori, muomala madaniyati va jamoada o‘zini tutish ko‘nikmalarining asosini tashkil etadi. Intellektual kamchiligi bo‘lgan o‘quvchilarda psixik rivojlanishning sustligi sababli axloqiy tushunchalarni anglash va ularga amal qilish jarayoni murakkab kechadi.

Mazkur toifadagi o‘quvchilarda hissiy-irodaviy sohaning yetarli rivojlanmaganligi, mustaqil nazoratning sustligi va xatti-harakat oqibatini to‘liq anglamaslik holatlari kuzatiladi. Natijada ular jamoat joylarida o‘zini tutish, tengdoshlari bilan muloqot qilish, kattalarga hurmat ko‘rsatish hamda umumiy qoidalarga rioya qilishda qiyinchilikka duch keladi. Shu sababli axloqiy tarbiya jarayoni tizimli va korreksion yo‘naltirilgan bo‘lishi zarur.

Axloqiy tarbiyaning asosiy maqsadi o‘quvchilarda jamiyat tomonidan qabul qilingan xulq-atvor me‘yorlarini shakllantirishdan iborat. Ushbu jarayonda o‘quvchilarga salomlashish,

minnatdorchilik bildirish, jamoada o'zini tutish, kattalarga yordam berish, ozodalikka rioya qilish va madaniyatli muomala qilish kabi ko'nikmalar o'rgatiladi.

Intellektual kamchiligi bo'lgan o'quvchilarni axloqiy tarbiyalashda ijtimoiy vaziyatlarni modellashtirish usuli samarali hisoblanadi. Mazkur usul orqali o'quvchilarga real hayotda uchraydigan vaziyatlar amaliy tarzda ko'rsatib beriladi. Masalan, jamoat transportida keksa insonlarga joy berish, navbat kutish, sinfdoshiga yordam ko'rsatish yoki maktab jihozlarini ehtiyot qilish kabi holatlar sahnalashtiriladi. Ushbu metod o'quvchilarning ijtimoiy xulq-atvor ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

Axloqiy tarbiyada xulqiy odatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish usuli ham muhim ahamiyatga ega. Intellektual kamchiligi bo'lgan o'quvchilarda murakkab ko'nikmalarni bir vaqtning o'zida shakllantirish qiyin kechadi. Shu sababli tarbiyaviy ishlar oddiy ko'nikmalardan boshlanadi. Dastlab salomlashish, murojaat qilish va minnatdorchilik bildirish o'rgatiladi. Keyinchalik esa jamoaviy munosabatlar va mas'uliyat hissini shakllantirishga e'tibor qaratiladi.

Emotsional ta'sirlantirish usuli ham axloqiy tarbiyada samarali vositalardan biri hisoblanadi. Ertaklar, hikoyalar, multfilmlar va hayotiy voqealar orqali o'quvchilarda yaxshilik va yomonlik haqidagi tushunchalar shakllantiriladi. Emotsional ta'sir orqali bola voqealarni chuqurroq his qiladi va ijobiy xatti-harakatlarni eslab qoladi.

Jamoaviy faoliyat usuli orqali o'quvchilarda hamkorlik, o'zaro yordam va mas'uliyat hissi rivojlantiriladi. Guruhli o'yinlar, sinfdan tashqari tadbirlar va jamoaviy topshiriqlar o'quvchilarning ijtimoiy moslashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, birgalikdagi faoliyat davomida o'quvchilar o'z xatti-harakatlarini boshqarishni va jamoa qoidalariga rioya qilishni o'rganadi.

Intellektual kamchiligi bo'lgan o'quvchilarda xulq-atvor madaniyatini shakllantirishda kundalik nazorat va mustahkamlash ishlari muhim o'rin tutadi. Chunki ushbu o'quvchilar o'rgatilgan ko'nikmalarni tez unutishi mumkin. Shu sababli salomlashish, kiyinish madaniyati, ozodalikka rioya qilish va muomala qoidalarini muntazam takrorlash talab etiladi.

Axloqiy tarbiya jarayonida oila va maktab hamkorligi ham katta ahamiyatga ega. Agar ota-onalar va pedagoglar tomonidan qo'yiladigan talablar bir xil bo'lsa, o'quvchilarda ijobiy xulq-atvor ko'nikmalari tezroq shakllanadi. Ota-onalarga bolaning xulqidagi kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar berish tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshiradi.

Korreksion-rivojlantiruvchi mashg'ulotlarda rag'batlantirish usullaridan foydalanish ham muhimdir. Maqtov, rag'bat kartochkalari va ijobiy baholash o'quvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi hamda ijobiy xatti-harakatlarni mustahkamlaydi.

Xulosa qilib aytganda, intellektual kamchiligi bo'lgan o'quvchilarni axloqiy tarbiyalash va ularda xulq-atvor madaniyatini shakllantirish uzoq davom etadigan pedagogik jarayon hisoblanadi. Maxsus tashkil etilgan korreksion-rivojlantiruvchi ishlar, ijtimoiy vaziyatlarni modellashtirish, emotsional ta'sirlantirish va jamoaviy faoliyat orqali o'quvchilarning axloqiy sifatlarini rivojlantirish hamda ularni jamiyat hayotiga moslashtirish mumkin.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. Po'latova P.M., Nurmuxamedova L.Sh., Yakubjonova D.B., Mamarajabova Z.N., Amirsaidova Sh.M., Sultonova A.D. Maxsus pedagogika. – Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2014. – 368 bet.
2. Vigotskiy L.S. Osnovy defektologii. – Moskva: “Prosvesheniye” nashriyoti, 1983. – 368 bet.

3. Sagatov A.I., Po'latova P.M., Mamedov K.X. Oligofrenopedagogika asoslari. – Toshkent: “O'qituvchi” nashriyoti, 1999.